



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 156-159 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQAVIY JIHATDAN EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA UNING ILMIY YECHIMLARI



Shamurotov Nodirbek Bakbergan o'g'li

Urganch davlat universiteti

"Biznes va boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan turli ekologik muammolarni yildan-yilga ortib borish o'ziga xos ekologik xavflarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Mintaqaviy jihatdan tus olayotgan ekologik xavflarga iqlim o'zgarishi, atrof-muhit degradatsiyasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, antropogen bosimning kuchayishi kabi omillarning ekologik barqarorlikka ta'siri ilmiy asosda yoritib berilgan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan insititutsional, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik xavfsizlik, mintaqaviy rivojlanish, atrof-muhit degradatsiyasi, barqaror taraqqiyot, resurslarni boshqarish.

Аннотация. В данной статье рассматривается ежегодный рост различных экологических проблем в региональном масштабе, приводящий к возникновению специфических экологических угроз. Научно обосновано влияние региональных экологических угроз на экологическую стабильность, таких как изменение климата, деградация окружающей среды, нерациональное использование природных ресурсов и усиление антропогенного давления. Разработаны рекомендации по решению институциональных, технологических и социально-экономических проблем, направленных на обеспечение экологической безопасности.

Ключевые слова: экологическая безопасность, региональное развитие, деградация окружающей среды, устойчивое развитие, управление ресурсами.

Abstract. This article discusses the annual increase in various environmental problems on a regional scale, which leads to the emergence of specific environmental threats. The impact of regional environmental threats on environmental stability, such as climate change, environmental degradation, irrational use of natural resources, and increased anthropogenic pressure, is scientifically explained. Recommendations are developed for solving institutional, technological, and socio-economic problems aimed at ensuring environmental security.

Keywords: environmental security, regional development, environmental degradation, sustainable development, resource management.

Kirish

Jahonda yildan-yilga aholi sonining keskin darajada o'sishi, sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda tabiiy resurslarga bo'lgan talabning ortishi ekologik xavfsizlik masalasini global va mintaqaviy darajada eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, mintaqalar kesimida tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlar, demografik bosim

va ishlab chiqarish tuzilmasining farqliligi ekologik xavflarning namoyon bo'lish shakli va darajasini belgilab beradi.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan aniq maqsad va vazifalarni o'zida jamlagan farmon va qarorlar, tasdiqlangan dasturlar ijrosi doirasida ko'rilgan chora-tadbirlar ijobiy natijalarni bermoqda. Jumladan, Orolbo'yi hududini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqildi, O'zbekiston Parij bitimini ratifikatsiya qildi. Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust jamg'armasi tashkil etildi, 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi. O'zbekiston "2019–2030 yillar davrida mamlakatning «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ni qabul qildi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish bo'yicha maxsus rezolyusiyasi qabul qilindi.

Shu o'rinda, Prezidentimiz o'z nutqida ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham dolzarb vazifa bo'lib qolishini qayd etdi. Xususan, davlat rahbari o'z nutqida «...biz dunyodagi eng katta ekologik ofat – Orol fojiasini bevosita o'z boshidan kechirayotgan xalqmiz. Shuning uchun hozirgi vaqtda respublikamizda bebaho ekologik tizimni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamlı dasturlar, jumladan «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda...», deya qayd etdi¹.

Ekologik xavfsizlik nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki aholi salomatligini saqlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish bilan ham uzviy bog'liq. Shu bois, mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Mintaqaviy darajada ekologik xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tadqiqotlar olib borish jarayonida ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil ekologik-iqtisodiy baholash kabi metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot ma'lumotlari sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, milliy statistik ma'lumotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Ekologik xavfsizlik masalasi bo'yicha Rossiya olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan, bevosita mintaqaviy kesimda, milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi sifatida keng o'rganilgan. Jumladan, V.I.Danilov-Danilyan ekologik xavfsizlikni iqtisodiy rivojlanishning tabiiy cheklovlari bilan bog'lab, mintaqalarda tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish ekologik inqiroz xavfini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlashda resurs tejankor texnologiyalar va ekologik reglamentlarning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan².

N.F.Reymersning ilmiy izlanishlarida ekologik xavfsizlik tabiiy ekotizimlarning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini saqlab qolish bilan bevosita bog'lanadi. U mintaqalarda

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1775>

² https://journals.eco-vector.com/0869-5873/article/view/659535/ru_RU

inson omilining ta'siri me'yordan keskin oshgan taqdirda ekologik barqarorlik esa izdan chiqishini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab bergan³.

A.V.Yablokov ham o'z tadqiqotlarida global iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi mintaqaviy darajada inson salomatligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rsatadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ekologik xavflar ko'pincha mahalliy darajada yig'ilish, biroq, oqibatlar lokal, mintaqaviy va hatto global darajada tus olishini yoritgan. Rossiya olimlari, katta mintaqaviy farqlarga ega mamlakatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlashda tabiiy-iqlimiy omillarni ustuvor deb hisoblaydilar va ularga ilmiy jihatdan yechim topishning bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir⁴.

Tahlil va natijalar

Ekologik xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, dastlab atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro ekologik hamkorlikka e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. chunki, yer yuzidagi barcha davlatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir o'zaro xalqaro kelishuv -shartnomalar, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish va turli darajada xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ekologik xavfsizlik masalasi dastlab atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilib, bu borada xalqaro doirada qo'yilgan ilk qadamlardan biri sifatida Shvesariyada 1913 yilda 18 ta davlat ishtirokida "Tabiatni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi muhim poydevor bo'ldi. Parijda 1923 yilda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tdi. 1928-yilda Bryussel (Belgiya) da "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" ochildi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida ekologik xavfsizlikka doir atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e'tibor qaratildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi munosabati bilan atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi. 1948 yilda BMT tashabbusi bilan "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" va "Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi" ga aylantirildi. Hozirgi kunga kelib ushbu ittifoq faoliyatida dunyoning 118 ta mamlakatidan 636 tadan ziyod davlat va jamoatchilik tashkilotlari ishtirok etmoqdalar⁵.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqalarda ekologik xavfsizlikka tahdid solayotgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Tabiiy resurslarning degradatsiyasi. Mintaqalarda yer, suv va biologik resurslardan me'yorsiz foydalanish tuproq eroziyasi, sho'rlanish, cho'llanish va suv tanqisligi kabi jarayonlarni kuchaytirmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Atmosfera havosining ifloslanishi. Mintaqalarda sanoat korxonalari, transport vositalari va energetika ob'ektlaridan chiqarilayotgan zararli moddalar havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi salomatligiga xavf tug'dirmoqda.

³ https://www.koob.ru/reimers_n_f/ehkologiya_rejmers

⁴ <https://rus-green.ru/face>

⁵ <http://pravacheloveka.uz/uz/articles/atrof-tabiiy-muitni-muofaza-ilishning-haloro-va-millij-uuij-standartlari>

Iqlim o'zgarishining ta'siri. Hududiy jihatdan harorat oshishi, yog'ingarchilik rejimi o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi mintaqalarda ekologik barqarorlikni izdan chiqarmoqda.

Ekologik boshqaruv tizimining samarasizligi. Ayrim mintaqalarda ekologik nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi, moliyaviy va institutsional imkoniyatlarning cheklanganligi muammolarni chuqurlashtirmoqda.

Tahlil natijalari shundan dalolat bermoqdaki, mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlash faqat tabiatni muhofaza qilish choralari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayonda kompleks yondashuvni, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional islohotlarni o'z ichiga olishi zarur.

Mintaqalarda suv resurslarini tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mahalliy aholining ekologik ongini oshirish mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda mintaqaviy darajada ekologik xavfsizlikni ta'minlash zamonaviy rivojlanish sharoitida strategik ahamiyatga ega vazifadir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarning asosiy sabablari antropogen bosim, resurslardan samarasiz foydalanish va boshqaruv tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mintaqaviy jihatdan ekologik siyosat choralari kuchaytirish;
- mintaqalarda resurs tejoychi va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- mintaqaviy ekologik monitoring tizimini yanada takomillashtirish;
- mintaqada aholining ekologik ta'lim va ekologik madaniyatini oshirish kabi chora-tadbirlar zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "2019–2030 yillar davrida mamlakatning «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ni tasdiqlash to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4539502>
2. <https://strategy.uz/index.php?news=1775>
3. https://journals.eco-vector.com/0869-5873/article/view/659535/ru_RU
4. https://www.koob.ru/reimers_n_f/ehkologiya_rejmers
5. <https://rus-green.ru/face>
6. <http://pravacheloveka.uz/uz/articles/atrof-tabii-muitni-muofaza-ilishning-haloro-va-millij-uuij-standartlari>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

